

## QADIMGI BOBIL PODSHOLIGINING TASHKIL TOPISHI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Zaripova Ziyoda O'razaliyevna**

*ziyodazaripova90@gmail.com*

*Tel: +998970962919*

**Annostatsiya.** Ushbu maqolada asosan qadimgi Bobil podsholigining tashkil topishi. Qaysi davlatlar bilan xalqaro va diplomatik savdo aloqalar olib borganligi. Qaysi hududlar uchun kurash olib borganligi haqida malumot beriladi. Bilamizki Qadimgi Bobil podsholigi Xammurabi hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Ushbu maqolada Xammurabi olib borgan islohatlar va u tomonidan tuzilgan qonunlar haqida to'liq ma'lumot beriladi.

**Annotation.** This article focuses on the formation of the ancient Babylonian kingdom. With which countries it has international trade and diplomatic relations. Information is provided about which territories were fought for. We know that the Old Babylonian kingdom dates back to the reign of Hammurabi. This article provides a complete overview of Hammurabi's reforms and the laws he created.

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о формировании древнего Вавилонского царства. С какими странами имеет международные торговые и дипломатические отношения. Приведена информация о том, за какие территории велись бои. Мы знаем, что Древневавилонское царство возникло во времена правления Хаммурапи. В этой статье представлен полный отчет о проведенных им реформах и принятых им законах.

**Kalit so'zlar.** Bobil podsholigi, Xammurabi, Uruk, Sumuabum, Zimrilim, Mari, Qonunlar to'plami, Ashshur, Eshnunna.

**Key words.** Babylonian kingdom, Hammurabi, Uruk, Sumuabum, Zimrilim, Mari, Codex, Ashur, Eshnunna.

**Ключевые слова:** Вавилонское царство, Хаммурапи, Урук, Сумуабум, Зимрилим, Мари, Кодекс, Ашур, Эшнунна.

Mil.avv 1894-1595-yillar orasidagi bu davrda bu yerda amoriylarning mustaqil sulolasi vakillari hukmronlik qiladi. Qadimgi Bobil podsholigining gullab-yashnagan davri Bobil I sulolasining yirik nomoyandasi Xammurabi (mil.avv.1792-1750) podsholik qilgan davriga to'g'ri keladi 【1】

Mil.avv. II ming yillikning boshlarida Mesapatamiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz amoriy qabilalarini shimoldan jadal kirib kelishi uchun sharoit yaratadi.

Mil.avv XVIII asr, boshlari, Mesapatamiyani, Larsa, Babil, Eshnunna, Ashshur, Mari, Islington shahar-davlatlari o'zaro bo'lib olgan edilar.Ularning aksaryatida amoriy qabilalaridan chiqqan podsholar hukmronlik qilar edi.Mil.avv.1895-yilda amoriylarning yaxrum qabilasi sardori Sumuabum(mil.avv.1895-1881 yillar) Babil taxtini qo'lga kiritadi va 1 Babil sulolasiga asos soladi.Uning davrida Babil mudofa devorlari bilan o'rab olinadi.Shahar aholisi ehtiyoji uchun kannalar qaziladi.Kish shahri bilan do'stona munosabatlar o'rnatiladi.Sumuabumdan keyin unjng jiyani Sumulael (mil.avv.1881-1845 yillar)Babil taxtiga chiqdi.Babil o'sha zamonlarda hali uncha yirik shahar davlat bo'lmaganligi manbalarda keltiriladi.U janubiy Mesapatamiyadagi Marada va Kazallu shahri hokimi Alumbiumu bilan urushlar olib boradi.Ammo,muvaffaqiyatsizliklarga uchragach, himoyalanish uchun u ham Babilni mudofa devorlari bilan o'rashga majbur bo'ladi.Mil.avv 1869-yilda Babil podsholigi Kish shahrini bosib oladi.So'ngra,Sippar va Uruk shahar-davlatlari bilan ittifoq tuziladi.Hukmronligining so'ngida Sumulael Larsaliklardan mag'lub bo'ladi.Babil davlati Mesapatamiyada gegemon bo'lishga intilishni vaqtincha qo'ldan chiqaradi.Manbalarda yozilishicha,Xammurapi o'z davrining yirik mashhur davlat arbobi,uzoqni ko'ruvchi ayyor diplomat,yirik strateg,dono qonunshunos,uddaburon va aqlli tashkilotchi shaxs bo'lgan.U o'z ittifoqchilari bilan harbiy ittifoq tuzib,xo'jalik masalalarida nozik siyosat olib borib,ishi bitgach ulardan yuz o'girgan.Dastlab Larsa bilan o'zaro ittifoq tuzib janubdagi Uruk,so'ngra Isinni o'ziga qaratib olgan.Xammurapi o'zining navbatdagi diplomatik aloqalarini Mari davlatiga qaratib uning podshosi Zimrilim bilan do'stona aloqalarni o'rnatadi.Mari ittifoqiga tayanib,Babil shahridan shimolda joylashgan kuchli Eshnunna ustiga qo'shin tortib, bu davlat qo'shinlarini tormor etgan.Navbatdagi zarbasi o'zining sobiq ittifoqchisi Larsaga bergan.Jangda Elam shohi Rimsin qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab,Elamga qochib ketgan. Xammurapi qo'shinlari Shummerni bosib olib, uni ham o'z podsholigiga qo'shib olgan. Shu bilan Mesapatamiyada kuchli davlat vujudga keladi. "Shimol" va "Janub" mamlakatlarning podsholari, ya'ni Zimrilim va Xammurapi butun Mesapatamiyada mutloq hukmdor bo'lish uchun shiddatli kAurash boshlaydilar. Mari Babil uchun kuchli va daxshatli raqib bo'lib, Shimoliy Mesapatamiyadagi ko'pgina, shaharlarni va Suriya-Mesapatamiya dashtlaridagi ko'chmanchilarni o'z nazorati ostiga olgan edi. **[2]**

Podsho Sumulaelning o'g'li Sabium mil.avv 1845-1831 yillar hukmronlik qilgan davrda Babil, yuqori Mesapatamiyani eng kuchli shahar-davlatlari Issin va Larsadan qolishmaydigan harbiy kuchga ega bo'ladi.Shu bilan birga, Bobilda Marduk ilohi uchun Esagilu (balad uy) ibodatxonasini qurdiradi. Babil podsholari Apil-Sin ( mil avv.1831-1813 yillar), va Sinmuballit (mil.avv.1813-1792 yillar) Babil hududlarini kengaytiradilar. Mesapatamiyada gegemonlik uchun kurashda ular yirik nomzodlardan biriga aylanadi. Sinmuballit Babil podsholaridan birinchi bo'lib janubga yurish uyishtiradi. Bobilliklar Uruk, Issin, Rapikum shaharlari va sutiy qabilalari bilan

ittifoqda Larsa podshosi Rimsinga (mil.avv.1822-1763yillar) qarshi chiqadilar. Ammo, mil.avv.1810-yilda Rimsin koalitsiyani tor-mor keltiradi. Bobil podsholigi Rimsinga bo'ysunishga majbur bo'ladi va buning natijasida, Larsaning siyosiy mavqei oshib ketadi. **【3】**

Mari O'rtayer dengizi sohilidagi Bibl, Ugarit, Karxemesh, Yamxad davlatlari, dengizdagi Krit va Kipr orollari bilan qizg'in savdo va diplomatik aloqalar olib borgan. Zimrilim davrida Marida 2,5 gektar maydonni egallagan, 300 xonali muhtasham saroy va xo'jalik binolari qurilgan edi. Saroy devorlari bir-biridan go'zal va chiroyli rasmlar bilan bezatilgan bo'lib unda podsho taxti qad ko'tarib turardi. Bu saroy o'z davrining "me'moriy mo'jizasi" hisoblangan. Bu saroyi ko'rish uchun Ugarit, Bobil, va Yamxaddan vakillar kelib, uning mo'jizakor ko'rinishidan lol qolganlar. Zimrilim va Xammurapi o'rtasida vaziyat keskinlashib ketadi. 1759- yilda Xammurapi Mari davlatini bosib oladi. Zimrilim Xammurapiga itoat etishni xoxlamay unga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Xammurapi qo'shinlari ikkinchi marta Marini qamal qilib uni vayron etgan va jangda shahar aholisining aksariyati qirib tashlangan. Maridagi "Mo'jizakor" shoh saroyi yoqib yuboriladi. Shu bilan Mari davlati barham topadi. Zimrilimning ittifoqdoshlari hisoblangan Nineviya, Ashshur va boshqa shaharlarni birin-ketin o'ziga bo'ysundiradi.

Qadimgi Bobil podsholigining xo'jaligi, ijtimoiy va siyosiy tuzumi haqida podsho Xammurapining bazalt toshi ustunga eng qadimgi mixxat bilan yozilgan mashhur qonunlar to'plami muhim manba hisoblanadi. Bazalt ustunining yuqori qismida taxtdan o'tirgan quyosh xudosi Shamash, uning oldida esa tantanali suratda turgan Xammurapi tasvirlari ishlangan. Ustunning hamma joyi 247 moddadan iborat qonunlar to'plamining mixxatda yozilgan matni bilan band. Negadir 42 modda yozilgan beshta ustunchadagi matnlar qirib tashlangan. Ammo, o'sha vaqtlar yana qonunning boshqa nusxalari ham topilgan. Uning qirib tashlangan qismi keyinchalik tiklangan. Bu o'sha davr Mirzo va sudyalari va boshqalarni o'qitish maqsadida, shuningdek, adliya ishlarida podsho qonunining ana shu nusxalaridan foydalanganlar. Qonunni chiqarishdan asosiy maqsad, mamlakatda adolat o'rnatib yaxshi hayot yaratishdir deyiladi. Qonunlarining asosiy qismida mamlakatdagi jinoiy ishlarga oid, huquq, sud ishlarini yuritishga oid, xususiy mulk huquqlarining buzilishi ya'ni o'g'irlik, talash va jangchilar huquqlariga oid bandlari birma - bir ko'rsatib o'tilgan.

Qonunning so'ngida shunday deyiladi: "Men Xammurapi adolatli podshodirman, menga qonunlarni Quyosh xudosisining o'zi yuborgan. Mening so'zlarim bebaho so'zlar, ishlarim tengi yo'q ishlardir". Shunday qilib, Xammurapi qonunlar to'plami Qadimgi Bobil podsholigi davrining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumini o'rganishda juda muhim tarixiy manba - hujjat sifatida katta ahamiyatga egadir. **【4】**

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish kerak ki Qadimgi Babil davlati o'z davrining yirik va qudratli davlatlaridan biri bo'lganligi va uning gullab-yashnaganini ko'rishingiz mumkin. Amoriylarning qabila sardori Sumuabum Babil sulolasiga asos soladi. Uning davrida Babil mudofa devorlari bilan o'rab olingani, shahar ehtiyoji uchun kanallar qaziladi. Kish shahri bilan do'stona munosabatlar o'rnatiladi. Shuningdek Xammurapi davrida Babil podsholigi o'z qudratining cho'qqisiga erishadi. Xammurapi qonunlarining qat'iy o'rnatilganligi va unga rioya qilmaganlarning jazolanganligi bu davrda ham davlat qonunlari ustun qilganligidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi" T. 2016. 119-b
2. A. Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi" T. 2016. 120-b
3. D. Urakov, A. Xolliyev, S. Gabrielyan, A. Biykuziyev, B. Xaynazarov "Jaxon tarixi" T. 2020. 69-b
4. A. Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi" T. 2016. 128-b